

---

## AYOL MA'NAVIYATI - JAMIYAT SAODATIDIR mavzusida davra suhbatini o'tkazildi

Farg'ona shahridagi "Saxovat uyi"da viloyat xotin-qizlar o'rtasida ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni muvofiqlashtiruvchi Targ'ibot guruhi a'zolari tomonidan "Ayol ma'naviyati - jamiyat saodatidir" mavzusida davra suhbatini va seminar-trening tashkil etildi.

Tadbirda viloyat Targ'ibot guruhi rahbari Sayyora Alimova, ma'naviyat va ma'rifat viloyat bo'limi mas'ul xodimi Gulbahor Ahmadalievna, otinoyi Kamola Raxmonovalar tomonidan mamlakatimizda ayollarga yaratilayotgan imkoniyatlar, imtiyozlar haqida, xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash borasida olib borilayotgan islohotlar, ko'rsatilayotgan e'tibor va g'amxo'rliklar haqida fikr yuritdilar.

"Yuksalish" liderlar akademiyasi psixologi Sayyora Azimova tomonidan ayollar bilan "Mehr ulashish" mavzuda trening mashg'uloti ham o'tkazildi. Tadbirda Farg'ona shahar hokimi o'rinbosari, oila va xotin-qizlar bo'limi boshlig'i Dilshodaxon Xolmatova ishtirok etdi va keksa-nuroniylarga esdalik sovg'alarini topshirdi.

Farg'ona shahar hokimligi Axborot xizmati

2023-03-13 20:27:53